

DALVARZINTEPA YODGORLIGI VA TARIXI.

Qarshiyev Do'stбек Qurbonmurod o'g'li.

Soibnazarov Ali Baxromovich.

Termiz Davlat Pedagogika Instituti 3- bosqich talabasi.

Annotation: Qadim ótmish tarixida ózing ulug'vorligi bilan mashxur bólgan jahonning eng qudratli antik imperiyasidan bir hisoblangan Kushon davlati Xitoydan Vizantiyaga qadar ulkan hududni nazorat etgan V asrlik tarixga ega qudratli turkiy davlatdir.

Kalit so'zlar: Kushon, Dalvarzintepa, Yuejilar, Vima Kadfiz, Kanishka.

Annotation: The Kushan state, which is considered one of the most powerful ancient empires in the world, famous for its glory in ancient history, is a powerful Turkic state with a history of the 5th century, which controlled a huge area from China to Byzantium.

Key words: Kushan, Dalvarzintepa, Yuejilar, Vima Kadfiz, Kanishka.

Аннотация: Кушанское государство, считающееся одной из самых могущественных древних империй мира, прославившееся своей славой в древней истории, — мощное тюркское государство с историей V века, контролировавшее огромную территорию от Китая до Византии. .

Ключевые слова: Кушан, Далварзинтепа, Юэджилар, Вима КаДФиз, Канишка.

KIRISH.

Dalvarzintepa – Sho'rchi shahridan 10 km masofada joylashgan, Termiz – Denov avtomobil yo'lining kunchiqar tomonidagi juda katta tepalik. . Ushbu obyektni batafsil o'rganish 1967-yilda tarixchi Galina Pugachenkova va M.E Masson tomonidan boshlangan. Mana bir necha yildirki bu yerda keng miqyosida arxeologik qazish ishlari olib borilmoqda. Xozir Dalvarzintepada kushonlar davriga oid imoratlarining harobalari ochilgan. Ayniqsa bu ko'hna shaharning o'rtasida joylashgam tepalikda, olib borilgan arxeologik qazish ishlari diqqatga sazovordur. Tekshirishlarga qaraganda bu yerda qandaydir katta ma'muriy binoning harobasi bo'lgan ekan. Mazkur binoning xonalari orasida bo'yi 11,6 eni 9,6m li xonalar ajralib turardi. Bu xonaning devorlari boshqa devorlarga qaraganda qalinroq bo'lgan. Qazish davomida bu yerdan ikkinchi darajali xonalar ham topilgan. Kushon podshohlaridan Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakillangan Milloddan avvalgi 1-asr oxiri milodning boshlarida Shimoliy Baqtriya hududida Dalvarzintepadan boshqa bunchalik yirik shahar manbalarda qayt etilmagan. Shahar hududida shoh ko'chalar shuningdek, tor ko'chalar ham bo'lgan. Bundan tashqari, Dalvarzintepada kulollar mahallasi ham o'rganilgan. Kulollar yashaydigan xonalar o'zining xashamatliligi bilan ajralib turgan. Xonalarning devorlari turli bo'yoqlar bilan naqshlangan. Bu yerdan haykallar ham topilgan, demak kulollar o'zlariga ancha to'q bo'lganlar, xozircha bu yerdan o'ndan ortiq xumdon qazib o'rganilgan. Ming yillar davomida yog'gan qor-yomg'ir suvlari tepalik ustidagi tuproqni yuvishi, kuchli shamol va bo'ronlar oqibatida yer yuzasiga chiqib qolgan ba'zi buyum

ashyolar, dag'al sopol xum, to'q qizil rangli nozik kosa, jom parchalari, barvasta odamlar va hayvonlar tasviri tushirilgan zanglagan kumush, mis va bronza tangalar, ayol haykalchalar va qimmatbaho munchoqlar qadimgi tarix qoldiqlaridir. 1967-yilda professor G.A. Puganchekova: "Samarqand yaqinidagi qadimgi Afrosiyob xarobalari qazib tekshirilganda unda 17ta madaniy qatlam borligi aniqlangan. Dalvarzintepa – antiqa antik shahar, undagi madaniy qatlam 2 – 3tadan oshmaydi. Bu yirik tapalikning istalgan joyini qazib ko'rsangiz, birdaniga qadimgi yodgorlik namunalari dach kelasiz. Kushon saltanati davrida Dalvarzin atrofi mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning atrofidagi katta xandaqlar suv bilan to'ldirilgan", – deb yozadi. Katta Dalvarzin shahrining mudofaa devorlari qalin paxsa va xom g'ishtdan tiklangan. Bu devorning qalinligi 8 – 10 metr bo'lgan. Devorning ba'zi joylarida mustahkam istehkomlar, burjlar va askarlar yurishi uchun maxsus yo'laklari bor edi. Dalvarzintepadan mil. avv. I asrga oid tasviriy san'at namunalari topilgan. Noyob sopol parchalarida ot choptirib borayotgan askarlar tasvirlangan. 1972-yilning kuzida misli ko'rilmagan oltin buyumlar xazinasini va dunyoda eng qadimgi hisoblangan 2ta shaxmat donasi topilgani katta shov-shuv bo'ldi. Fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari milodiy II asrga taalluqlidir. 1972-yil 25-sentabrda Dalvarzintepada unutilmas voqea yuz berdi: bir ko'za tilla taqinchoq va yombilar xazinasini topildi. B. Turg'unov, Eduard Rtvaladze, T. Belyayeva, talaba Erkin Jo'rayev va Anatoliy Sa'dullayev tilla buyumlarni birma-bir sanab, yombilardagi yozuvlarni ko'chirib yozib, ikki nusxada dalolatnoma tuzdilar. Tilla xazina jami 115ta: munchoq shodasi, bo'yinga taqiladigan 2ta pekto kamar to'qasi, bilakuzuk bo'lakchalari, shildiroq shaklidagi taqinchoqlar, sirg'a, kulchasimon oltin buyumlar, to'rtburchak yombi va boshqa ashyolardan iborat edi. Bu xazinaning og'irligi 35 kg 712 gr 13 mg edi. Garchi Dalvarzintepa xazinasidagi ayrim taqinchoqlar Afg'oniston, Hindiston va Pokistondan topilgan taqinchoqlarga o'xshab ketsa-da, ammo ularning Shimoliy Baqtriya, ya'ni hozirgi O'zbekiston janubida yashagan ustalar tomonidan tayyorlanganligi shubhasizdir. Dalvarzintepa xazinasini ajdodlarimizning qo'shni xalqlar va mamlakatlar bilan qadimdan savdo-sotiq va madaniy aloqada bo'lganligidan darak beradi. Dalvarzin xazinasini Markaziy bankka topshirildi. O'zbekiston kompartiyasi Markaziy komitetining bosh kotibi Sharof Rashidov qadimshunoslar bilan uchrashdi. 1973-yil 2-aprelda bu topilmalar bo'yicha matbuot konferensiyasi o'tkazildi. Shundan so'ng G.A. Puganchekovaning "Dalvarzintepaning badiiy xazinasini" kitobi rus va fransuz tillarida nashr etildi. Murodjon Mahmudovning "Yombi" qissasi chop etildi. Dalvarzintepa yodgorligini o'rganish. 1989-yilda yangi bosqichga ko'tariladi. O'zbekistonning san'atshunoslik ekspeditsiyasi bilan Yaponiyaning Tokiodagi Soka Universiteti professori, Arxeologiya instituti professori Kuyuzdo Koto rahbarligidagi ekspeditsiya bilan hamkorlikda ish olib bormoqdalar. Buyuk ipak yo'li izlari, Kushonlar davridagi diniy etiqodlarning o'zaro ta'siri va ular Baqtriya Tohariston san'atida aks ettirilishida yapon va o'zbek olimlari oldidagi, eng dolzarb ilmiy muomilalar qatorida turadi. Yapon olimi, professor Kyudzo Kato yodgorlikni o'rganishda jonbozlik ko'rsatdi. U 2002-yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan. Hozirda Dalvarzin yaqinidagi 43-maktabga Markaziy Osiyo budda madaniyatini o'rgangan olim – Kyudzo Kato nomi berilgan. Tatyana Belyayeva va

Bahodir Turg'unovlar dalvarzintepa sirlarini ochishda salmoqli hissa qo'shganlar. Yillar o'tdi. Dalvarzin shahri yirik Kushon saltanatining birinchi poytaxti ekanligi butun dunyo arxeologlari, tarixchilari tomonidan e'tirof etildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti xodimlarining Dalvarzintepada olib borgan ilmiy tekshirish ishlari tufayli ajdodlarimiz tarixining hozirgacha bizga noma'lum bo'lgan yangi sahifalari ochildi. Buyuk Kushon saltanati madaniyati jahonga tarqaldi. Dalvarzintepadan topilgan yana bir topilmani e'tirof etishimiz kerak: 1867-yil bahorida mexanizator N. Murodov Dalvarzintepaning shimolidagi uncha katta bo'lmagan tepalikni surayotgan chog'ida tuproq orasidan odam boshi haykali chiqib qoldi. Bu Budda haykali edi. "O'zbekiston – buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar chorrahasi. Imperiyalar, dinlar, madaniyatlar" mavzusida madaniy meros haftaligi doirasida Termiz shahrida "O'zbekiston – sivilizatsiyalar chorrahasi" xalqaro arxeologik va sayyohlik forumi bo'lib o'tdi. Forumga o'zbekistonlik va saksondan ortiq xorijiy davlat olimlari, arxeologlari, muzey va institut rahbarlari kelishdi. Fransiya Milliy ilmiy tadqiqotlar markazi professori P. Lerish: "Jahon sivilizatsiyasi tarixini o'rganishda Surxondaryodagi tarixiy yodgorliklar muhim o'ringa ega. Jumladan, Teshiktosh g'ori, Zarautsoy yodgorligi, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Jarqo'ton, Xolchayon, Qoratepa va Fayoztepa singari obidalar o'z bag'rida ne-ne sinoatlarni saqlab kelmoqda. Turli madaniyat va dinlar hamda buyuk imperiyalar tarixi bu zamin o'tmishi bilan chambarchas bog'liq ekan, uni qiyosiy o'rganish hayotiy zaruriyatdir", – dedi o'z nutqida.

Xulosa

Tamaddun beshigi bo'lgan Surxon zaminidagi yodgorliklar o'zining qadimiyligi bilan mashhur. Viloyatimizdagi 359ta tarixiy yodgorliklarning 234tasi arxeologik yodgorliklar sirasiga kiradi. Yodgorliklarimizni o'rgangan inson qalbida jonajon Vatanimizga, bunyodkor, tanti va saxovatli xalqimizga bo'lgan mehri yanada ortadi, shu yurt farzandi ekanidan qalbi cheksiz faxr va iftixorga to'ladi, O'zbekistonimizning tarixi va o'tmishi naqadar buyuk ekanligini yana bir bor anglaydi. Zero, tarix xalqqa ma'rifat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent – 2000;
2. Turob Eshboyev. Sho'rchi shuhrati va inson qudrati. Toshkent – 2007;
3. . "Xalq so'zi" gazetasi. 2019; 5. Meros.uz. "Kushon davlatining kelib chiqishi"
4. G.A. Pugachhenkova va boshqalar. Dalvarzintepa – O'zbekiston janubidagi Kushonlar shahri. 1978;
5. O'zME 1-jild Toshkent 2000-yil "Dalvarzintepa xazinasini".
6. Shokirjon Pidayev "Sirli Kushonlar Saltanati" Toshkent O'zbekiston SSR Fan "Nashriyoti" 1990. 7. Qarshiyev Fazliddin Termizning o'rta osiyo xalqlari hayotida tutgan strategik, iqtisodiy va diniy hayotidagi o'rni. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. 2024.
8. Sagdullayev A.S, V.A Kastetskiy. Tarix. Qadimgi dunyo. 6 -sinf o 'quvchilari uchun darslik. Toshkent: "Yangi yo 'l poligraf servis" -2013.
9. Turob Eshboyev. Sho'rchi shuhrati va inson qudrati. Toshkent 2007